

ARAB TILSHUNOSLIGI TARIXIDA SINONIMLARNI O'RGANISHGA DOIR YONDASHUVLAR

Fathiddin Muhammadjonov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Arab tili va adabiyoti Al-Azhar" kafedrası

Lingvistika (arab tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15476790>

Annotatsiya. Maqolada arab tilshunosligi tarixida sinonimlarning roli va ularning tahlili haqida batafsil ma'lumot berilgan. Arab tilidagi sinonimlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. U sinonimlar orqali tilni chuqurroq tushunish va ularning tarixiy, lug'aviy ahamiyatini anglashga yordam beradi. Maqola, arab tili tilshunosligida sinonimlarning ilmiy tahlilini olib borish, ularning to'g'ri foydalanishini o'rgatish va til o'rganish jarayonida qanday muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: arab tilshunosligi, sinonimiya, grammatik terminlar sinonimligi, diniy aspekt, majoziy ma'no.

Asosiy qism: Lingvistikada sinonimiya hodisasi batafsil o'rganilgan mavzulardan hisoblanadi. Dunyo tilshunosligida so'z leksik ma'nolarining paradigmatic munosabatlaridan biri o'z aksini sinonimiyada topadi va albatta shu termin ostida tadqiq etiladi¹. Bunda sinonim deya talqin qilinayotgan so'z ikkinchi bir so'z bilan ma'nodoshlik nuqtai nazaridan yaxlit yoki o'xshash ma'no kasb etishi zarur. Barcha tillarda sinonimiya birdan ortiq so'zning leksik ma'nolari o'rtasidagi munosabatda yuzaga chiqadi. Shu munosabatga ko'ra bir so'z ikkinchi bir so'zga nisbatan olib qarab, uning sinonimi deb yuritiladi².

Lingvistik nuqtai nazardan, sinonimiyaning alohida termin sifatida qo'llanila boshlashi 1990-yillardan boshlab keng tarqaldi³. Shu yillarda sinonimiya atamasini alohida termin sifatida qo'llashga ehtiyoj tug'ildi. Bungacha ham sinonimiya mavzusi dunyo tilshunosligida keng o'rganilgan bo'lsada, uning yanada tadqiq etilishi jadal rivojlandi.

Bir tilning qanchalik boy ekanligi ushbu tilning leksik boyligidan bilinadi. Albatta, arab tili semantik nuqtai nazardan barcha tillardan so'z boyliging ko'pligi va ifoda uslubining ravonligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda arab tili so'z boyligi jihatidan eng boy tildir. Arab tilida so'z boyligining ko'pligi ushbu tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p ekanligiga dalolat qiladi. Sinonimiya hodisasining tadqiq etilishi so'z ma'nolarini yaxshi anglashga, insonlar o'rtasidagi muloqotni to'la tushunishga yordam beradi. Darhaqiqat, arab tilida bir xil ma'no kasb etuvchi lekin, turli xil so'zlar bilan nomlanuvchi leksemalar juda ko'pdir.

Sinonimiya arab tilining o'ziga xos bahsli-munozarali va tadqiqiy mavzularidan hisoblanadi. Bu borada arab tilshunoslari o'rtasida arab tilshunosligining "taroduf" (الترادف - sinonimiya) tarmog'i bo'yicha turli xil yondashuvlar mavjud. Ma'nodoshlik arab tilshunosligida turli yondashuvlar asosida o'rganib chiqilgan va tadqiq etishda davom etilayotgan muhim, ilmiy mavzu hisoblanadi.

Ta'kidlab o'tilganidek, sinonimiya mavzusi turli yondashuvlarda o'rganilishi bilan bir qatorda arab tilidagi grammatik terminlarning ham ma'nodoshligi ma'lum darajada tadqiq

¹ Шмелев Д.Н. Очерки по семасиологии русского языка. М.: Просвещение. 1964. С. 139; Bergmann R., Stricker S., Pauly P. Einführung in die deutsche Sprachwissenschaft. - Heidelberg: Winter. 2005. S. 103; Xolmonova Z. "Boburnoma" leksikasi. - Toshkent: Fan, 2007. - B. 134.

² Mirtojibev M.M. "O'zbek tili semisologiyasi". - Toshkent: Mumtoz so'z nashriyoti. 2010. - B. 189.

³ Practical Course in Terminology Processing. Author, Juan C. Sager. P.115. Publisher, John Benjamins Publishing, 1990.

- الترادف المصطلحي النحوي) “At-taroduf al-mustolah an-nahviy” (Zakariya Aslan o‘zining “Nahviy, istilohiy sinonimiya”) nomli izlanishlarida: Grammatikaga oid terminologik sinonim so‘zlar tushunchasiga: “Bir tushunchani anglatuvchi grammatik terminlar majmuasi”⁴ – deya ta’rif beradi.

Olimning qarashlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, grammatik jihatdan bir xil vazifa bajaruvchi grammatik terminlar sinonimdir. Bundan tashqari, arab tili grammatikasiga oid kitoblar, grammatik sinonimlikni inkor etmaydi. Masalan, Jaloliddin Suyutiy (1445-1505) arab tili grammatikasidagi “التمييز” (cheqlov – tamiyir) so‘zi “التفسير” (tafsir) so‘zlari ma’nosi bilan bir xil deydi⁵. Ya’ni, ushbu fikrga ko‘ra “التمييز” atamasini yuqorida sinonim deya talqin qilingan so‘zlarga almashtirib qo‘llash mumkindir. Shuningdek, grammatikada “البناء” ya’ni, ayrim sintaktik birliklarning oxiri o‘zgarishini ifodalovchi termin “شغل” (shughl), “التفريع” (tafriy), “الإسناد” (isnad) kabi “asoslanmoq”, yoki “bino bo‘lmoq” kabi ma’nodagi so‘zlar bilan sinonimligi aytiladi. Sababi yirik nahvshunos olim Sibavayh (760-796) ba’zi o‘rinlarda ushbu so‘zlarni ma’nodosh sifatida qo‘llagan bilan izohlanadi⁶. Misol tariqasida Basra arab tilshunoslik maktabi vakillari “ظروف” (zarof) (aslida arab tilida o‘rin-payt holiga nisbatan qo‘llaniladigan termin) deb qo‘llaydigan so‘zlarni nahvshunos olim Abu Hasan Ali ibn Hamza ibn Abdulloh ibn Usmon Kisiy (737-805) “صفة” (sifa – sifat so‘z turkumiga mansub so‘zlar) shaklida, Abu Amr ibn Usmon ibn Qanbar al-Farro’ (761-822) esa “محال” (mihal – lug‘aviy jihatdan o‘rin, grammatikada bir sintaktik bo‘lak boshqasining vazifasini bajarib kelishi) so‘zidan foydalangan⁷. Demak, yuqoridagi ma’lumot va o‘rganilgan manbalardan arab tilshunosligi tarixida grammatik atamalar sinonimik munosabat kasb etgan va ayrim tilshunos olimlar shunday terminlarning qo‘llanilishiga o‘z e’tiborlarini qaratganlar degan xulosaga kelish mumkin.

Avvalgi va hozirgi davr arab tilshunoslari o‘rtasida sinonimiya borasida ko‘p farqli jihatlar borligining sababini diniy aspektga aloqador ekanligi bilan izohlash mumkin. Darhaqiqat, Muhammad ibn Qosim Anbariy (885-940) o‘zining “Bashar so‘zlari ma’nolaridagi go‘zallik” (al-zahr fi ma’ani kلمات الناس) nomli kitobida aytganidek: “Daraja jihatidan ilmlarning eng yuksagi, mavqeyi jihatidan ilmlarning eng oliysi, odamlar o‘zlari bilmagan holda salovatlari, duolari, tasbehlari va rabbilariga yaqinlashishlarida ishlatadigan so‘z ma’nolarini bilishdir”⁸ – deydi. Diniy omil o‘laroq, arab tilshunos olimlari Qur’oni karimda ma’nodosh so‘zlar borligi yoki yo‘qligi va sinonim so‘zlarning islom ilmlarining muhim tarmog‘i fiqh ilmi masalalariga ta’siri borasida ko‘p bahslashganlar.

Sinonimiya hodisasining o‘rganilishida Qur’oni karimga doir yondashuvlarni ham uchratish mumkin bo‘lib, tadqiqotchi Hiba Rahim Shayxon o‘zining **التاويل والترادف في القرآن من** nomli maqolasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

ولم تخلو المكتبة العربية والاسلامية من رسائل بحثية تدور حول هذه الظاهرة التي شغلت الدارسين من مفسرين ولغويين بين مؤيد ومعارض وقد برقت من كل فرقة اسماء وحبرت مؤلفات وسيقت حجج وادلة سطعت في سماء العربية فاصبحت نجوما تضيء لطلاب العلم⁹.

“Arab tili kitoblari (kutubxonachiligi – arab tilida ta’lif etilgan kitoblarga ishora

⁴ زكريا أصلاً، دراسات مصطلحية العدد السادس ص 65. الناشر: معهد الدراسات المصطلحية. – الفاس. 2006.

⁵ شرح المفصل، موقف الدين بن يعيش، المجلد الأول، الجزء الثاني، ص 70، عالم الكتب، بيروت (بدون تاريخ).

⁶ الأشياء والنظائر في النحو، جلال الدين السيوطي ص 82، دار الكتب العلمية، الطبعة الأولى، لبنان، 1984.

⁷ الأصول في النحو، ابن السراج أبو بكر، الجزء الأول، ص 203، تحقيق عبد الحسين الفتلي، مؤسسة الرسالة، الطبعة الثالثة، بيروت، 1988.

⁸ الزاهر في معاني كلمات الناس، للأنباري، تح/ د. حاتم صالح الضامن، مؤسسة الرسالة، ط 1، 1412هـ، بيروت: ج 3/1.

⁹ ينظر الترادف في القرآن الكريم بين النظرية والتطبيق، وقواعد التدرج الأمثل: ٤٣٥ - ٤٤٣، وكتاب الألفاظ المترادفة، والترادف في اللغة، الفروق اللغوية وأثرها في القرآن الكريم، وما اختلفت الفاظه واتفقت معانيه، والبحث الدلالي في كتب معاني القرآن لأبي عبيدة الأخفش والفراء: ١٣١، الكلمات المترادفة والمتضادة في سورة البقرة (دراسة تحليلية دلالية) (رسالة ماجستير)، والترادف والمشتراك اللفظي في سورة فاطر دراسة (لغوية تحليلية) (رسالة ماجستير)، والإعجاز اللغوي في ألفاظ الترادف من القرآن الكريم دراسة تطبيقية في لفظتي (الشك والريب) (بحث منشور).

qilinmoqda) mufassir va tilshunoslardan iborat tadqiqotchilarni mashg'ul qilgan bu masala (sinonimiya hodisasi)ni qamrab oluvchi tadqiqot jamlanmalaridan xoli emas. Ulardan bu masalani qo'llab-quvvatlagan va inkor qilganlar bor. Bu borada ikki jamoadan ham mavzuga taalluqli (ularning sinonim yoki sinonim emasligi borasidagi) ism (ot, so'z)lar keltirilgan. Asarlar ta'lif etilgan. Arab tilidagi so'zlarning (sinonim yoki sinonim emasligi haqida) hujjat va dalillar ilgari surilgan. Bu ta'lif etilgan kitoblar talabalarga (shu masalada) yorug'lik bag'ishlovchi yulduzlarga aylandi".

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib mufasssirlarning Qur'onda kelgan har bir leksemaning o'ziga xos ma'nosi bor bo'lib, bir so'z ikkinchi so'zni ma'noda takrorlashi mumkin emas degan qarashni ilgari surishganini xulosa qilishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida arab tilida sinonimiya hodisasi mavjudligini isbotlovchi ayrim arab tilshunos olimlari qarashlariga zid.

Sinonimiya hodisasining arab tilida hosil bo'lganlik sabablari turlicha. Arab tilida sinonimiya hodisasining yuzaga kelishida bir qancha sabablarini keltirib o'tish o'rinlidir. Shu jumladan, arab qabilalarining ko'pligi; arab tili ko'plab lahja va shevalardan iborat ekanligi; arab adabiy tilining shakllanishida arab qabilalari muhim ahamiyat kasb etganligi shular jumlasidan. Ma'lumki, ushbu shevalarda narsalarning xususiyati va leksikologik tuzilishi ba'zi lug'aviy birliklarda bir-biridan farq qiladi. Bu esa tabiiyki, arab tilida ma'nodosh so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Arab tilida sinonim so'zlarning vujudga kelish sabablaridan yana biri fan-texnika omili, ommaviy axborot vositalari matbuotda ifoda uslubini erkin tanlashi yoki mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning jadal sur'atda rivojlanishi natijasida boshqa tildan arab tiliga so'zlarning, xususan, neologizmlarning kirib kelganidir. Masalan, asli etimologiyasi yunon tiliga¹⁰ borib taqaladigan Misr, Iroq kabi arab davlatlarida hozirgi kunga qadar ishlatiladigan "أفندي" (أفندي – hurmat ma'nosida afandim, hojam degan ma'noni bildiradi) so'zining dastlabki qo'llanila boshlashi Usmonli imperiyasi vaqtida keng tarqalgan. Vaholanki, ushbu so'zning arab tilida mashhur muqobili "سيدي" (سيدي – hurmat ma'nosida ishlatilib, hojam ma'nosini bildiradi) iste'molda mavjud bo'lgan. Bugungi kunda arablar tomonidan ko'p foydalanilayotgan so'zlardan biri "شير" (شير – ulashmoq) fe'li asli ingliz tilidan facebook ijtimoiy tarmog'i ommalashgach kirib keldi¹¹. Bunday boshqa tildan kirib kelgan o'zlashma so'zlarga o'nlab, yuzlab misollar keltirish mumkin.

Shuningdek, sinonimiya hodisasining vujudga kelishiga sabab o'laroq arab tilidagi ayrim sifatlarning otga aylanganini, masalan, arab tilida "البتر", "الصارم", "المهند" so'zlari o'tkir degan ma'noni anglatadi, lekin, ular vaqt o'tishi bilan "qilich" so'zini bildiruvchi ot bo'lib shakllanib qolganiga guvoh bo'lish mumkin¹². Shuningdek, dastlab majoziy ma'noda ishlatilib, so'ngra asl ma'no kasb etuvchi so'zlar ham arab tilida sinonim so'zlarning ortishiga sabab bo'ldi. Misol uchun, "الرحمة" so'zi bir onaning rahmidan tug'iladigan yoki qarindoshlikni ifodalaydigan so'z sifatida qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik rahm-shafqat ma'nolarini anglatadigan so'zga aylangan¹³.

Sinonimiyaning turli mavzularda, jumladan, fiqhiy masalalarda tadqiq qilinishining bir qancha sabablari mavjud. Diniy terminlarning boshqa tildagi muqobiliga almashtirib ishlatilishi masalasi fiqh ilmi olimlariga echilishi zarur bo'lgan masalalarni keltirib chiqardi. Masalan, arab tilidagi Alloh kalimasi, fors tilidagi xudo so'zi bilan ma'nodosh hisoblanadi. Odatda islom

¹⁰ <https://groups.google.com/g/hamorabe/c/KRY4muGjkn8?pli=1>

¹¹ <https://www.mosoah.com/references/dictionaries-and-encyclopedias/%D9%85%D8%B9%D9%86%D9%89-%D9%83%D9%84%D9%85%D8%A9-%D8%B4%D9%8A%D8%B1-share/>

¹² الترادف في القرآن الكريم بين النظرة والتطبيق، محمد نور الدين المنجد، ص 83، دار الفكر المعاصر، دمشق، 1997.

¹³ الترادف في القرآن الكريم بين النظرة والتطبيق، محمد نور الدين المنجد، ص 182-183، دار الفكر المعاصر، دمشق، 1997.

dinida ayrim diniy arkonlarni ado etishdan oldin “Allohu akbar” (الله أكبر – Alloh buyuk) jumlasini aytish shart qilinadi. Alloh kalimasi esa forslardagi “xudo” va turklardagi “tangri” soʻzlariga toʻgʻri keladi. Islom dini keng tarqalgach, oʻz navbatida, ushbu jumlaning muqobili sifatida “xudo akbar” (خداي أكبر) deyish mumkinmi yoki mumkin emasmi degan savol kelib chiqadi.

Ikki til oʻrtasida soʻzlarning sinonimik munosabatga kirishish-kirishmasligi masalasidan tashqari boshqa chigal masalalarni ham uchratish mumkin. Masalan, islom fiqhiga koʻra oilada er ayoliga “طلقت” (“taloq qildim”) lafzini ishlatlsa, oʻrtada tuzilgan nikoh “فسخ” (“bekor”) boʻladi.

Lekin, shu maʼnodagi soʻz ishlatilsa nikoh bekor boʻlishi yoki boʻlmasligi masalasi shular jumlasidandir. Bizningcha shunday masalalar va omillarning barchasi, islom dini va arab tilshunosligi nuqtai nazaridan sinonimiya mavzusining ahamiyatini oshirdi va arab tiliga taalluqli fiqh, tafsir ilmlarida ham keng miqyosda tadqiq etilishiga olib keldi.

Maqolada arab tilshunosligida sinonimlarning roli va ochib berilgan. Sinonimlar nafaqat til oʻrganish jarayonini yanada chuqurlashtiradi, balki tarjima, adabiyot va boshqa tilshunoslik sohalarida ham dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu maqola, tilshunoslar va arab tili oʻrganuvchilari uchun sinonimlar bilan ishlashda zarur boʻlgan nazariy va amaliy maʼlumotlarni taqdim etadi. Tilda sinonimlar bilan ishlash, tilni yanada mukammal va aniq tushunishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Qoʻchqorov O. Oʻzbek tilining sinonimlar lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 912 b.
2. Madrahimov A. Sinonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1982. – 180 b.
3. Rasulov T. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksikologiyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1984. – 224 b.
4. Normurodov Yo. Sinonimlar semantikasi va uslubiyati. – Toshkent: Fan, 1993. – 200 b.
5. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali. Al-Furuq va manʼu-taroduf. M.Juyushiy nashrga tayyorlagan. Qohira: Iymon nashriyoti, 2005.
6. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali, Tahsil nazoir al-Qurʼon. - Qohira: Dor al-kutub va al-vasoiq al-Misriya. ب Inv. № 19516/1
7. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali. Tahsil nazoir al-Qurʼon.- Iskandariya. Maktaba baladiya al-Iskandariya. Qoʻlyozma. Inv. № 3585/11
8. Abu Hanifa Nuʼmon ibn Sobit. Al-Fiqh al-akbar/S.M.Oltinxon Toʻra tarj. – Toshkent: Adolat, 2003. – 65 b.
9. Ahmad Abdurrahmon. Al-Fath ar-Rabboniy li-tartibi Musnadi al- Imom Ahmad. - Qohira: Dor ihyo at-turos al-arabiy. Nashr yili koʻrsatilmagan. – T. 3.
10. al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. Qurʼon tafsiri kitobi // al-Jome as- sahih. – Tarj. R.Obidov. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1995. – 356 b.
11. Mirtojibev M.M. “Oʻzbek tili semisologiyasi”. – Toshkent: Mumtoz soʻz nashriyoti. 2010. B. 288.
12. <https://termiziy.uz/uz/news/1056>
13. <http://forum.oyina.uz/kiril/generation/123>
14. <https://groups.google.com/g/hamorabe/c/KRy4muGjkn8?pli=1>
15. <https://www.mosoah.com/references/dictionaries-and->